

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/2025.27.12.Ped.08.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

ABILOVA ZULFIYA JALGASBAEVNA

RAQAMLI TA'LIM SHAROITIDA UMUMTA'LIM MAKTAB
INGLIZ TILI O'QITUVCHILARNING KASBIY KOMPETENSIYALARINI
TAKOMILLASHTIRISH

13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)

PEDAGOGIKA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya
ABTOREFERATI

Buxoro – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD)

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Abilova Zulfiya Jalgasbayevna

Raqamli ta'lim sharoitida umumta'lim maktab ingliz tili o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirish 3

Абылова Зулфия Жалгасбаевна

Повышение профессиональных компетенций учителей английского языка общеобразовательных школ в условиях цифрового образования..... 25

Abylova Zulfiya Zhalgasbaevna

Improving the professional competencies of English language teachers in secondary schools in the context of digital education..... 49

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

List of published works

Список опубликованных работ 53

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/2025.27.12.Ped.08.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

ABILOVA ZULFIYA JALGASBAEVNA

RAQAMLI TA'LIM SHAROITIDA UMUMTA'LIM MAKTAB
INGLIZ TILI O'QITUVCHILARNING KASBIY KOMPETENSIYALARINI
TAKOMILLASHTIRISH

13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)

PEDAGOGIKA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya
ABTOREFERATI

Buxoro – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.4.Phd/Ped11335 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume) Ilmiy kengashning veb sahifasida (www.buxdu.uz) hamda “ZiyoNet” axborot-ta’lim portali-www.ziynet.uz, <http://library.ziynet.uz/uz/book/146145> manzillariga joylashtirilgan..

Ilmiy rahbar:

Ro‘ziyev Yarash Bozorovich
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Rasmiy opponentlar:

Qo‘ldoshev Rustambek Avezmurodovich
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Isakova Nodira Azzamovna
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD)
dotsent

Yetakchi tashkilot:

Samarqand davlat chet tillar instituti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2025.27.12..Ped.08.05 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil 3-iyun soat 09:00dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: +99865 221-29-14; faks: +99865 221-27-07, e-mail:buxdu_rektor@buxdu/uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (D-904 raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: +99865 221-29-14.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil 20-may kuni tarqatildi.

2026-yil 21-maydagi 21-raqamli reyestr bayonnomasi.



N.B. Ataboyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

N.G. Dilova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy
kotibi v.v.b., pedagogika fanlari doktori
(DSc), professor

Sh.Sh. Olimov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, pedagogika
fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini tizimli ravishda shakllantirish va uzluksiz rivojlantirish bugungi ta'lim siyosati va pedagogik amaliyotning eng dolzarb masalalaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Stenford Universiteti, MIT va Oksford Universiteti kabi yetakchi ilmiy markazlar raqamli o'quv platformalari, virtual laboratoriyalar va sun'iy intellektga asoslangan pedagogik tizimlarni tatbiq etish orqali o'quv jarayonining interaktivligini oshirish va o'quvchilarning nazariy bilimlarini amaliy ko'nikmalar bilan uyg'unlashtirishga katta e'tibor qaratmoqdalar. Shu bilan birga, global mehnat va ta'lim bozorida yuqori malakali, zamonaviy texnologiyalarni erkin qo'llay oladigan va mustaqil fikrlash qobiliyatiga ega mutaxassislarning yetishmasligi muammosi mavjudligi raqamli ta'lim vositalari orqali o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirishning strategik va amaliy ahamiyatini yanada oshirmoqda.

Dunyoda ta'lim tizimi raqamli texnologiyalarning tezkor rivojlanishi va axborot-kommunikatsiya vositalarining keng tatbiqi natijasida tub o'zgarishlarga duch kelmoqda. BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari hamda elektron hukumatni rivojlantirish reytingida belgilangan vazifalarni hisobga olgan holda, raqamli texnologiyalarni tizimli va keng qamrovli joriy etish ta'lim jarayonini modernizatsiya qilish va uning samaradorligini oshirishda strategik ahamiyatga ega vosita sifatida xizmat qilmoqda. Ta'limni axborotlashtirish jarayonining eng muhim yo'nalishlaridan biri umumta'lim maktablarida ingliz tili o'quvchilarining axborot-kommunikatsiya kompetensiyalarini tizimli ravishda shakllantirish bo'lib, bu pedagogik jarayonni barcha ta'lim bosqichlarida innovatsion raqamli texnologiyalar asosida transformatsiya qilish va uning samaradorligini oshirish imkoniyatini yaratadi.

Mamlakatimizda ta'lim sifatini oshirish va zamonaviy kadrlar tayyorlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlari, jumladan, "Yangi O'zbekistonning asosiy ustuni – bilim, ta'lim va tarbiya bo'ladi!" degan qarashlari ta'limning barcha bosqichlarida sifatni oshirish, pedagogik jarayonni modernizatsiya qilish va innovatsion yondashuvlarni joriy etishni ta'minlashga xizmat qilmoqda. Ta'lim sohasida raqamli ko'nikmalarni rivojlantirish zamonaviy pedagogik innovatsiyalar va raqamli texnologiyalar yordamida umumta'lim maktab ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini oshirish hamda o'quvchilarning tahliliy, tanqidiy fikrlash va keng ko'lamli raqamli transformatsiya sharoitida samarali bilim va ko'nikmalarini egallash imkoniyatlarini yaratishda muhim omil hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabridagi "O'zbekiston-2030 Strategiyasi" to'g'risidagi 158-sonli, 2019-yil 8-oktyabrgi "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli, 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish

konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-sonli Farmonlari, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-sonli, 2019-yil 8-oktabrdagi 2021-yil 19-maydagi "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5117 son qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I." Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi: Mamlakatimizda chet tili o'qitish metodikasini G.X.Bakiyeva, J.A.Kurbanbayev¹, ta'limda kompetensiyaviy yondashuvning mohiyati va uni chet tili o'qitishdagi ahamiyati D.U. Hoshimova, M.M.Vahobov, B.X.Xodjayeov, N.A.Muslimov, J.E.Usarov, S.Q.Tursunovning² ilmiy ishlarida ko'rib chiqilgan. Ingliz tili grammatikasi nazariyasi, nutqda grammatik kompetensiya shakllantirish masalalari S.A.Misirov, M.Y.Jusupov, I.B.O'tayeva, J.Jalolov, M.Choriyev, I.V.Rahmonov, H.T.Mustafayeva, A.A.Isoqov³, o'z tadqiqot ishlarida yoritib berilgan. Axborot kommunikatsiya texnologiyalari vositasida ingliz tilini o'qitish metodikasi M.R.Muhiddinova, S.Q.Tursunov, B.Rahmonov, B.G.Kulmatov, F.A. Shirinova, M.Norqulova⁴ kabi olimlarning ilmiy ishlarida tadqiq etilgan.

¹ Bakiyeva G., Maxkamova G., Qo'ldoshev A. Ingliz tili 3. – Toshkent, 2007. –230 b.; Kurbanbayev D.A. Bo'lajak chet tili o'qituvchilari nutq omilkorligini nazorat qilish metodikasi: Ped. fan. nomzodi...diss. –T., 2011.–160 b.

² Хошимова Д.У. Лингводидактические основы изучения лакун в контексте современного функционирования русского языка и межъязыковых взаимодействий: Дисс. д-ра.пед. наук. –Ташкент, 2007.– 209 с.; Vahobov M.M. Umumiy o'rta ta'lim tizimida o'rnatish sifati monitoringi modelini takomillashtirish: Ped. fan. dok. diss. avtoreferati. – Toshkent, 2016.– 81 b.; Xodjayeov B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik. – T.: Sano-standart, 2017. – 416 b.; Muslimov N.A. Kasb ta'limi o'qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari: Ped.fan.dokt. diss. – T., 2007. – 357 b.; Usarov J.E. Uzlusiz pedagogik ta'lim klasteri sharoitida kompetentlik talablari va ta'lim samaradorligi imkoniyatlari//Uzlusiz ta'lim, 2020. – 6. – 104 b.; Tursunov S.Q. Ta'limda elektron axborot resurslarini yaratish va ularni joriy qilishning metodik asoslari: Ped.fan.doktori (PhD) diss. avtoref. – T., 2011. –24 b.

³ Misirov S.A. Kasb-hunar kollejlari ingliz tili o'qitishning lingvodidaktik asoslari: Ped.fan.nom.diss. – T.: TDPU, 2007. – 232 b.; Джусупов М., Кудакеева А.З., Мажитаева Ш. Фразеология русского языка: лингвистические и методические проблемы. – T.: Фан. 2008. – С. 124.; O'tayeva.I.B Mustaqil ta'lim jarayonida o'quvchilarning grammatik kompetensiyalarini rivojlantirish: Ped.fan. dok.(PhD) disser. – T., 2022.– 31 b.; Jalolov J.J., Makhlamova G.T., Ashurov Sh.S. English Language Teaching methodology. – Tashkent: Fan va texnologiya, 2015. – 336 p.; Choriev M. English grammar. – Toshkent, 2004.– 205 p.; G'apbarov M. Ingliz tili grammatikasi. – Toshkent, 2008.– 336 b.; Рахманов А.Б. Формирование профессиональной компетенции будущих учителей русского языка в самообразовательной деятельности: Автореф. дисс. док. пед. наук. – Ташкент, 2022. – 82 с.; Мустафоева Х.Т. Инглиз тили грамматикасини ижтимоий-гуманитар факультетлар талабаларига ўргатишнинг лингвометодик хусусиятлари: Пед. фан. док. (PhD) дисс. – Самарқанд, 2018.; Isoqov.A.A. Akademik litsey o'quvchilarining ingliz tilida grammatik ko'nikmalarini takomillashtirish texnologiyasi: Ped. fan. dok. (PhD) diss. – Toshkent, 2018. – 151 b.

⁴ Мухитдинова М.Р. Умумий ўрта таълим мактаблари битирувчиларини инглиз тилига масофавий ўқитишнинг усул ва воситалари: Пед. фан. доктори (PhD) дисс. – Тошкент, 2020.; Tursunov S.Q. Ta'limda elektron axborot resurslarini yaratish va ularni joriy qilishning metodik asoslari: Ped.fan.doktori (PhD) diss. avtoref.– T., 2011. –24 b.; Rahmonov B. O'quvchilarning kommunikativ ko'nikmalarini axborot-kommunikatsiya

MDH mamlakatlarida chet tilini, xususan grammatik va boshqa lingvistik kompetensiyalarni o'qitish metodikasi hamda ingliz tilini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) vositalari yordamida o'qitish pedagogik tamoyillari va metodologik yondashuvlari sohasida O.M. Bobienko, L.S. Vigotskiy, N.D. Galskovo, I.A. Zimnyaya, O.N. Podgorskaya, G.V. Rogova, S. Seytlin va I.V. Robertlar⁵ tomonidan kompleks ilmiy tadqiqotlar olib borilgan bo'lib, ularning ishlari chet tilini o'qitishning nazariy asoslarini shakllantirish va amaliy metodikalarni takomillashtirishga katta hissa qo'shgan.

Dunyo mamlakatlarida ingliz tilini o'qitish metodologiyasida kommunikativ yondashuv, turli til kompetensiyalarini rivojlantirish va grammatikani o'qitish masalalari, shuningdek, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) vositalari orqali darslarni interaktivlashtirish M. Warschauer, S. Greany, F. Bordbar, S.D. Shyamlee va J.C. Richards⁶ kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Biroq ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini oshirishda zamonaviy raqamli texnologiyalarning integratsiyasi va ularning o'quvchilarning kommunikativ va kompetensiyaviy rivojlanishiga ta'siri hali yetarlicha ilmiy asosda o'rganilmagan bo'lib, aynan shu ilmiy bo'shliq dissertatsiya mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Buxoro davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq, "Umumta'lim maktablarida ingliz tilini o'qitish va o'qituvchilarning malakasini oshirishga qaratilgan ta'lim texnologiyalarini takomillashtirish" (2024-2026 y.) mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

texnologiyalari vositalari yordamida shakllantirish: Ped. fan. doktori (PhD) diss. –T., 2019. – 121 b.; Kulmatov B.G. Ingliz tilini innovatsion texnologiyalar yordamida o'qitishda CEFR mezonlaridan foydalanishning nazariy asoslarini takomillashtirish: Ped.f.f. doktori (PhD) diss. avtoref. – T., 2018. – 45 b.; Shirinova F.A. Masofaviy ta'lim vositasida tibbiyot–farmatsevtika yo'nalishi talabalarining mustaqil o'quv–biluv faoliyatini loyihalashtirish: Ped. fan. dok.diss (PhD). –T., 2021.–140 b.; M.Norqulova. Qoraqalpog'iston Respublikasi A2 darajadagi o'quvchilarning ingliz tili grammatik kompetensiyasini shakllantirishda AKTdan foydalanish metodikasi. Ped.f.f. doktori (PhD) diss. Avtoref. - B., 2025.

⁵ Бобиенко О.М. Компетентно-ориентированный подход в образовании взрослых. Уч. пос.– Казань: ТИСБИ, 2004.– 204 с.; Зимняя И.А. Лингвопсихология речевой деятельности: избранное психологические труды. – М., Воронеж, 2001. – 432 с.; Выготский Л.С. Педагогическая психология/ Под ред. В.В.Давыдова.– Москва: Педагогика, 1991. – 480 с.; Гальского Н.Д., Гез И.Н Теория обучения иностранным языкам. Лингводидактика и методика: учеб. пособие.– Москва: Академия, 2009.–336 с.; Подгорская О.Н. Формирование грамматической компетенции как составляющей иноязычной коммуникативной компетенции будущего учителя иностранного языка// Известия Волгоградского государственного педагогического университета. Языкознание и литературоведение, 2018. – 20-24 с.; Рогова Г.В. Методика обучения иностранным языкам в средней школе. – Москва: Просвещение, 1991. – 287 с.; Сейтлин С.Н Язык и ребёнок. Освоение ребёнком родного языка: учебное пособие. – Москва: Владос, 2017. – 240 с.; Роберт И.В. Современные информационные технологии в образовании: дидактические проблемы; перспективы использования. – Москва: ИИО РАО, 2010. – 140 с.

⁶ Warschauer M. Laptops and literacy. new york: Teachers College Press. Bordbar F, 2016.; English teachers' attitudes toward computer-assisted language learning. International Journal of Language Studies, 4, 179206.; Stepp–Greany, J. Student Perceptions on Language Learning in a Technological Environment: Implications for the New Millennium // Language Learning & Technology, 2002. – 165-180-p. Shyamlee S.D., Phil M. Use of Technology in English Language Teaching and Learning: An Analysis/ In International Conference on Language, Medias and Culture, 2012.– 150-156-p. Jack C. Richards, Richard W. Schmidt, Longman Dictionary of Language Teaching and Applied Linguistics, Longman, 2010. – P.99.; Brown, H. D. Principles of Language Learning and Teaching (4th ed.). White Plains, NY: Pearson Education, 2010.; Bordbar F. English teachers' attitudes toward computer-assisted language learning. // International Journal of Language Studies.– Canada, 2010.–179-206-p.;

Tadqiqot maqsadi raqamli ta'lim sharoitida umumta'lim maktab ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari quyidagilarni qamrab oladi:

ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini uning lingvodidaktik va psixologik-pedagogik xususiyatlarini hisobga olgan holda rivojlantirishning modernizatsiyalashgan metodikasi loyihalashtirish va amaliyotga joriy etish;

raqamli texnologiyalar asosida mazmuniy tarkibiy qismlarni dolzarblashtirish orqali ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish modeli optimallashtirish;

pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini raqamli vositalar yordamida rivojlantirishga asoslangan holda umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun metodik tavsiyalar yaratish va o'quv-metodik ta'minotni takomillashtirish.

umumta'lim maktablari tizimida ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga oid lingvodidaktik salohiyat va yondashuvlarning hozirgi holati tadqiq etilib, ushbu jarayonning pedagogik shart-sharoitlariga aniqlik kiritilmoqda.

Tadqiqot obyekti raqamli ta'lim sharoitida umumta'lim maktab ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirish jarayoni belgilanib, tajriba sinov ishlari Taxiato'sh tumani ixtisoslashtirilgan maktabida, Urganch shahri 15-sonli umumta'lim maktabi, Bo'stonliq tumani 1-son umumtalim maktabi, Chirchiq shahri 2-sonli umumtalim maktablaridan jami 372 nafar ingliz tili o'qituvchilari jalb qilingan.

Tadqiqot predmetini raqamli ta'lim sharoitida umumta'lim maktab ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirishning tashkiliy-pedagogik shartlari, rivojlantirish bosqichlari, shakl, usul va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Ishda tadqiqotning adekvatligini ta'minlovchi ko'p bosqichli metodologik apparatdan foydalanildi. Empirik bosqichda ma'lumotlarga statistik ishlov berish va ularni grafik vizuallashtirish orqali pedagogik tajriba o'tkazildi. Nazariy blok qiyosiy-taqqoslash, tahliliy-sintez va analogik tahlil usullarini o'z ichiga oldi. Diagnostika kuzatuv, test sinovlari, so'rovnomalar va maxsus ishlab chiqilgan metodikalar yordamida amalga oshirildi. Prognostik jihat esa ekspert baholari hamda ishtirokchilarning o'zini o'zi baholash natijalarini umumlashtirishga asoslandi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

umumta'lim maktablari ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish imkoniyatlari nutqda noverbal va supersegmental til birliklarini qo'llash, mobil gadjetlardan foydalanish, ta'lim sohasining qamrovini mustaqil aniqlash hamda USB drayverlarini qo'llash usullari (refleksiya sinergiyasi, zaruriy motivlar) bilan integratsiyalash yordamida aniqlashtirilgan;

raqamli Treasure Hunt, Subject Sampler va WebQuest texnologiyalari asosida ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish modeli bilim va ko'nikmalarni barqaror kognitiv tuzilmalarga integratsiya qilish hamda

o'zgaruvchan ta'lim muhitida adaptiv kompetensiyani shakllantirishga yo'naltirilgan tarkibiy komponentlar (communication, collaboration, creativity, critical thinking asosida) takomillashtirilgan;

ingliz tili fanining lingvodidaktik va psixopedagogik xususiyatlari yordamida raqamli ta'lim sharoitida ingliz tilini o'qitishni zamonaviy avlod ehtiyojlariga moslashtirishga yo'naltirilgan integrativ-differensial metodika Onlayn muloqot, Blog va Wiki raqamli texnologiyalarini qo'llash asosida ishlab chiqilgan;

raqamli ta'lim muhitida ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini baholash mazmuni kasbiy faoliyatga moslashuvchanlik darajalari hamda shaxsiy sifatlarning (kasbiy-intellektual, tashkiliy-kommunikativ, emotsional-irodaviy) tavsifi asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari:

raqamli texnologiyalardan foydalanish natijasida shakllanayotgan va rivojlanayotgan kompetensiyalarni tadqiq etishga bag'ishlangan mahalliy hamda xorijiy olimlarning ilmiy ishlari tizimli tahlil qilingan;

ingliz tili fanining lingvodidaktik va psixopedagogik xususiyatlari yordamida raqamli ta'lim sharoitida ingliz tilini o'qitish bo'yicha kasbiy kompetentligini rivojlantirish mezonlari bo'yicha uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilgan;

ingliz tili fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik yondashuvlarning afzalliklari aniqlashtirilgan;

umumiy o'rta ta'lim maktablari ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishning amaliy-texnologik tizimi takomillashtirilgan;

raqamli ta'lim muhitida ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini baholash mezonlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi xorijiy hamda OAK ro'yxatidagi ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, xalqaro va respublika miqyosdagi ilmiy konferensiya materiallari, ilmiy-metodik takliflarning amaliyotda tatbiq etilgani; tadqiqot vazifalariga mos keluvchi tadqiqot metodlarining qo'llanilganligi; shuningdek matematik-statistik qayta ishlov berilganligi va vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati umumiy o'rta ta'lim maktablari ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslari, tizimli yondashuv, xorijiy tillarni o'qitishning tashkiliy pedagogik shart-sharoitlarni takomillashtirish, ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan tavsiyalar, ta'lim jarayonini samarali tashkil etish bo'yicha ilmiy-metodik ko'rsatmalar, tavsiyalar asosida o'quv metodik qo'llanma ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Ishning amaliy ahamiyati shundan iboratki, tadqiqot davomida olingan xulosalar hamda dissertatsiya materiallaridan darslik va o'quv qo'llanmalarini yaratishda samarali foydalanish mumkin, tadqiqotda ishlab chiqilgan uslubiy tavsiyalar umumta'lim maktablarining 7–8-sinflarida ingliz tilini o'qitish jarayonida qo'llash uchun mo'ljallangan bo'lib, mazkur fan doirasida ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, tadqiqot mavzusi bo'yicha mavjud ilmiy-

metodik adabiyotlarning tarixiy tahlili asosida an'anaviy ta'lim hamda raqamli ta'lim texnologiyalari o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ochib berishda foydalanish imkonini yaratadi.

Tadqiqot natijalarini joriy etilishi. Raqamli ta'lim sharoitida umumta'lim maktab ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish bo'yicha o'tkazilgan tadqiqot natijalari va ishlab chiqilgan takliflar asosida:

umumta'lim maktab ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish imkoniyatlari, nutqda noverbal va supersegmental til birliklarini qo'llash, mobil gadjetlardan foydalanish, ta'lim sohasining qamrovini mustaqil aniqlash hamda USB drayverlarini qo'llash asosida takomillashtirishga oid takliflar "English book for students" nomli o'quv metodik qo'llanmasini ishlab chiqishda foydalanilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2024 yil 29 fevraldagi 11-05-949104 raqamli dalolatnomasi). Natijada umumta'lim maktab ingliz tili o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish imkoni kengaytirilgan.

Tadqiqot natijalarini joriy etilishi. Raqamli ta'lim sharoitida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish bo'yicha o'tkazilgan tadqiqot natijalari va ishlab chiqilgan takliflar asosida:

umumiy o'rta ta'lim maktablari ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish imkoniyatlari nutqda noverbal va supersegmental til birliklarini qo'llash, mobil gadjetlardan foydalanish, ta'lim sohasining qamrovini mustaqil aniqlash hamda USB drayverlarini qo'llash usullari (refleksiya sinergiyasi, zaruriy motivlar) bilan integratsiyalashga doir tavsiyalardan "English book for students" nomli o'quv qo'llanmasini ishlab chiqishda foydalanilgan (Oliy o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2023-yil 17 iyul dagi №314 buyrug'i, 314-58 raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada umumta'lim maktablarida tashkil etilgan dars jarayonida o'quvchilarning bilim darajasi hamda fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish uchun zarur pedagogik shart-sharoitlar yaratilgan.

raqamli Treasure Hunt, Subject Sampler va WebQuest texnologiyalari asosida ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish modeli bilim va ko'nikmalarni barqaror kognitiv tuzilmalarga integratsiya qilish hamda o'zgaruvchan ta'lim muhitida adaptiv kompetensiyani shakllantirishga yo'naltirilgan tarkibiy komponentlar (communication, collaboration, creativity, critical thinking) asosida takomillashtirishga oid taklif va tavsiyalardan "Ta'lim qoraqalpoq tilida o'qitiladigan maktablarning 8-9 sinflari uchun aniq bo'yicha elektron darslik va metodik tavsiya ilovasini yaratish hamda o'quv jarayoniga joriy etish" mavzusidagi innovatsion loyihasini amalga oshirishda foydalanildi (I-XT-O-19929, 20.02.2024. Ma'lumotnoma N 72). Natijada umumta'lim maktab o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini takomillashtirishga yordam berdi va o'quvchilarga dars jarayonida ingliz tilida bir-biri bilan muloqot qilish, jamoada ishlash qobiliyatini, maqsadga erishish uchun qiziqarli yondashuvlarni topish qobiliyatini, o'z fikrini mustaqil ifoda etish kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qilgan.

ingliz tili fanining lingvodidaktik va psixopedagogik xususiyatlari yordamida raqamli ta'lim sharoitida ingliz tilini o'qitishni zamonaviy avlod ehtiyojlariga moslashtirishga yo'naltirilgan integrativ-differensial metodika Onlayn muloqot, Blog va Wiki raqamli texnologiyalarini qo'llash asosida ta'lim jarayonida ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishning o'quv didaktik ta'minoti mazmuniga singdirilgan. Bundan Samarqand davlat chet tillar institutida Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 12-dekabrda 2/24-4/7-690-sonli xatiga asosan 2022-2024 yillarda amalga oshirilgan va Toshkent shahridagi AQSh elchixonasi hamda Xalqaro ta'lim bo'yicha Amerika Kengashi bilan hamkorlikda AQSh davlat departamenti tomonidan moliyalashtiriladigan "English Access Microscholarship Program" loyihasida foydalanilgan.(O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Samarqand davlat chet tillar instituti 2026-yil 26-yanvardagi 1469/02-son ma'lumotnomasi). Natijada bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining raqamli ta'lim sharoitida kasbiy kompetensiyasini shakllantirish metodikasi boyitilgan.

Tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi. Dissertatsiya tadqiqoti natijalari 4 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokama qilingan ilmiy ma'ruzalar shaklida sinovdan o'tkazilgan.

Dissertatsiya natijalarini e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 13 ta ish, shundan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan, 4 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyot ro'yxati va ilovadan iborat. Tadqiqot ishi 142 sahifani tashkil etgan.

DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi, tadqiqotning O'zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari bilan muvofiqligi, muammoni o'rganish darajasi, tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan Oliy o'quv yurtlar ilmiy tadqiqot rejalari bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, shuningdek obyekti va predmeti, tadqiqotning yangiligi va ilmiy-amaliy ahamiyati, natijalarning ishonchliligi, bajarilishi, tasdiqlanishi, nashr etilishi, tuzilishi va hajmi to'g'risida ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **Raqamli ta'lim sharoitida umumta'lim maktab ingliz tili o'qituvchilari kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirishning nazariy asoslari** deb nomlangan birinchi bob uch fasldan iborat bo'lib unda umumta'lim maktab ingliz tili o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodik muammo sifatida, ingliz tili o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari hamda raqamli ta'lim sharoitida ingliz tili o'qituvchilari kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning mavjud holati va uni takomillashtirish yo'llari haqida nazariy fikr-mulohaza yuritiladi.

Bugungi globallashuv jarayonlari ta'lim tizimiga yangi talab va vazifalarni yuklamoqda, xususan, ingliz tilining xalqaro muloqot tili sifatidagi o'rni ortib borayotgani ta'lim sifatini oshirish, o'qitish metodikasini yangilash hamda o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishni taqozo etmoqda. Ingliz tili o'qituvchilari ta'lim tizimida yetakchi subyekt sifatida maydonga chiqib, o'qituvchi nafaqat yuqori darajadagi til bilimiga ega mutaxassis, balki pedagogik jarayonni samarali tashkil etuvchi, innovatsion texnologiyalarni qo'llay oluvchi hamda o'qituvchilarni mustaqil va tanqidiy fikrlashga yo'naltira oluvchi professional pedagog hisoblanadi.

Metodikaning muhim maqsadlaridan biri odatda o'quv jarayonini yaxshilash va uning samaradorligini oshirishga yordam beradigan usullarini izlash bilan ko'rsatiladi. Ana shunday izlanishlar doirasida ingliz tili o'qituvchilari o'qitishning obrazli tomonini yaxshilashga harakat qilib, taklif etilayotgan o'quv materialini vizual idrok etishga yordam beradigan turli ko'rgazmali qurollardan foydalanganlar.

Rivojlangan G'arb mamlakatlarida o'tgan asrning 80-yillaridan boshlab chet tillarini o'qitishda kompyuterdan foydalanishning CALL - Computer Assisted Language Learning (kompyuter yordamida til o'qitish) deb nomlangan yangi yo'nalishi ajralib turadi.

Raqamli texnologiyalardan foydalanish chegaralarida ta'lim jarayonini takomillashtirish T.T.Kalekeyevaning tadqiqot mavzusiga aylandi. Dissertatsiya ishining natijasi umumta'lim maktablari o'qituvchilarining malakasini oshirish masalalariga tizimli yondashuvni yaratish bo'ldi.

D.N.Mamatov o'zining ilmiy tadqiqotlarida raqamli muhit sharoitida pedagogik ta'limni takomillashtirish masalalarini ta'lim va tarbiya tizimining uzviy birligida ko'rib chiqadi. Tadqiqot doirasida muallif pedagogik faoliyatni raqamlashtirishga xizmat qiluvchi dasturiy ta'minotni ishlab chiqqan, shuningdek, uni pedagogik loyihalash jarayoniga joriy etishning ilmiy-amaliy usullarini taklif etgan, jumladan raqamli texnologiyalarning ta'lim samaradorligini oshirish, pedagoglarning kasbiy faoliyatini modellashtirish hamda o'quv jarayonini optimal tashkil etishdagi imkoniyatlarini ochib beradi.

O'quv jarayonining uslubiy tarkibiy qismini qayta qurishning asosiy bosqichi o'rganishning eng samarali usullarini yaratishga, mustaqil qarorlar qabul qilishga qodir ijodiy shaxsni tarbiyalash nuqtai nazaridan o'qituvchilarning faolligini oshirishga qaratilgan yangi modellarni yaratish zarurati edi.

Uslubiy ishlanmalarning o'zgarish dinamikasi jarayoni ma'lum darajada CALL rivojlanish tarixini aks ettiradi, bu ularning asosiy tendentsiyalarini o'z ichiga oladi, bu (teacher-oriented approach) har bir o'quvchiga individual yondashuvga o'tishni o'z ichiga oladi (learner-centered approach). "Kognitiv faoliyat orqali o'rganish", "Insayt orqali o'rganish", "Insayt" atamalari kompyuterni o'rganish asosida paydo bo'lgan, shuningdek, yangi texnik vositalardan foydalanish jarayonida o'quv jarayonini optimallashtirishning yangi notrivial usullarini izlashni ko'rsatadi.

O'quv jarayoniga texnik vositalarni joriy etishning turli usullarini ishlab chiqishni uch bosqichga bo'lish mumkin:

CALL (Computer Assisted Language) - XX asrning saksoninchi yillarida shaxsiy kompyuterlar davrining kelishi;

TELL (Technology Enhanced Language Learning) ICT in LT (Information and Communication) - XX asrning 90-yillarida internetning paydo bo'lishi;

MALL (Mobile Assisted) - 2000-yillarda mobil gadgetlarning paydo bo'lishi.

G'arb tadqiqotchilari, asosan, raqamli kompetensiyalar atamasining mazmunini insonga amaliy faoliyatda raqamli texnologiyalardan optimal foydalanishda yordam beradigan bilim, ko'nikma va qobiliyatlar sifatida tushunishadi degan xulosaga keldik. Bundan tashqari, raqamli kompetensiyalar va raqamli qurilmalarni o'zlashtirish uchun motivatsiya, shuningdek ulardan foydalanish qobiliyati ko'pincha bu atama bilan bog'liq deb hisoblanadi.

Raqamli kompetensiya atamasining mazmunini batafsil o'rganib, A. Aviram va Y. Eshet-Alkalai raqamli kompetensiyani 5 ta komponentga ajratdilar:

fotovizual savodxonlik - vizual formatda olingan ma'lumotlarni ajratish va ulardan foydalanish qobiliyatini anglatadi;

reproduktiv savodxonlik - raqamli texnologiyalardan foydalangan holda ma'lum bir maqsad uchun yangi mahsulotlarni mustaqil ravishda shakllantirish qobiliyati;

chiziqli bo'lmagan xolda raqamli makonda o'zingizni erkin his etish;

axborot savodxonligi - elektron axborot sohasida harakatlanish, olingan ma'lumotlarni tanqidiy nuqtai nazardan topish va baholash qobiliyati;

ijtimoiy-emotsional savodxonlik - shaxsning aloqa, hamkorlik yoki ma'lumotni iste'mol qilish jarayonida uning ijtimoiy va hissiy jihatlari bilan bog'liq bo'lgan raqamli makondagi faoliyat tomonlariga munosabati.

Ingliz olimlari G.Dudeney, N. Hockly va avstraliyalik olim M. Pegrum bilan birgalikda o'zlarining "Digital literacies" kitobida, bizningcha, ilgari surgan juda qiziq, raqamli kompetensiyalarning tasnifi ham mavjud. Ularning fikricha, raqamli kompetensiyalar muhim, chunki ular o'quvchilarga "XXI asr ko'nikmalari" ga imkoniyat berish, ularning ijodiy qobiliyatlari va faolligini rivojlantirish, shuningdek, ular global muammolarni mustaqil hal qilish jarayonida, jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish, tanqidiy baholash jarayonida ajralmas hisoblanadi. Bundan kelib chiqadiki, ular tomonidan ishlab chiqilgan modelda raqamli kompetensiyalar - bu ularning individual tushunishida ijtimoiy birgalikda yashash ko'nikmalari bo'lib, ularsiz ma'lumotni optimal dekodlash, uni olish va tarqatish jarayonida qo'llash har doimgidek emas. Aloqa kanallari sonini kengaytirish, shunga ko'ra, bunday vakolatlarning mavjudligi atrofdagi ijtimoiy sohaga jadal integratsiyalashuvga yordam beradi, shuningdek, olingan o'sish potensialini keyingi kasbiy faoliyatda amalga oshirishga va madaniy xalqaro almashinuv masalalarida malakali shaxsni rivojlantirishga yordam beradi.

O'rganilayotgan adabiyotlar tahlili ilmiy tadqiqotchilarning axborot uzatishning zamonaviy texnik vositalari, xususan, raqamli texnologiyalar asosidagi

yangi paydo bo'lgan kompetensiyalar sohasiga katta qiziqish bildirishini ko'rsatdi. Shunga ko'ra, olimlar tomonidan alohida toifada aniqlangan kompetensiya raqamli deb nomlandi.

Nisbatan yaqinda o'rganish obyektiga aylangan raqamli kompetensiya uchun ushbu konsepsiyaga kiritilgan asosiy tarkibni aniqlash kerak edi. Bizning fikrimizcha, raqamli kompetensiya tushunchasi va uning tarkibiy ta'riflarini to'liq aks ettiruvchi G.U. Soldatova, T.A. Nestik, E.I. Rasskazova va E.Yu. Zotova. Ularning versiyasida raqamli kompetensiya ta'rifini "shaxsning hayotning turli sohalarida (kontent bilan ishlash, aloqa, iste'mol, texnosfera) infokommunikatsiya texnologiyalarini ishonchli, samarali, tanqidiy va xavfsiz tanlash va qo'llash qobiliyatidir".

Shaxsning bunday qobiliyatiga ega bo'lish raqamli kompetensiyaning bir qismi bo'lgan bir qator vakolatlarni rivojlantirishni nazarda tutadi (1-rasm):



1-rasm. Shaxsning raqamli kompetensiyasi

Rasmda shaxsning raqamli kompetensiyasi uchta asosiy tarkibiy vakolat orqali ko'rsatilgan:

1. Axborot va media kompetensiyalari – ma'lumotlarni izlash, ularni to'g'ri idrok etish, tanqidiy tahlil qilish, media savodxonlik va texnik vositalardan foydalanish qobiliyatini o'z ichiga oladi.

2. Kommunikativ kompetensiya – ijtimoiy tarmoqlar, elektron pochta va onlayn platformalar orqali samarali muloqot qilish, raqamli etikaga rioya qilish qobiliyatini ifodalaydi.


3. Texnik kompetensiya – elektron qurilmalar va dasturiy ta'minotdan maksimal samaradorlik va xavfsizlik bilan foydalanish qobiliyatini o'z ichiga oladi.

Ushbu uch vakolat iste'molchi malakasi orqali amaliyotga tatbiq etiladi: kundalik muammolarni hal qilish, texnik vositalardan oqilona foydalanish va raqamli ko'nikmalarni real hayotga tatbiq etish.

Dissertatsiyaning **Raqamli ta'lim sharoitida umumta'lim maktab ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirish metodikasi** deb nomlangan ikkinchi bobida umumta'lim maktab ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish mazmuni, metodik imkoniyatlari hamda raqamli ta'lim sharoitida umumta'lim maktab ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning takomillashtirilgan modeli yoritilgan.

Kasbiy-pedagogik kompetentlikka kiradigan barcha kompetensiyalarni amalga oshirishning asosida ingliz tili o'qituvchisining kasbiy-gnostikaga asoslangan kasbiy – lingvistik kompetensiyasi yotadi. Ushbu kompetensiya ingliz tili o'qituvchisining asosiy professional funksiyalarini amalga oshirish imkoniyati sifatida tushuniladi. U chet tilini o'qitish jarayonida o'qituvchi faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini aniq va yorqin aks ettiradi.

Ingliz tilini o'qitish jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish ulardan foydalanish jadallashgan sari ma'lum qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda. Yildan-yilga axborot virtual maydonida turli xil tahdidlar soni ortib bormoqda, biz bularni onlayn xatarlar deb nomladik. Bunday turdagi muammolarni hal qilishning bir yo'li TeamViewer dasturiy ta'minotidan foydalanish bo'lishi mumkin. TeamViewer dasturiy ta'minoti o'qituvchiga o'quvchilar faoliyatini nazorat qilishda va texnik muammolar yuzaga kelganda yordam ko'rsatishda yordam beradigan. Dastur yordamida o'qituvchi o'quvchining kompyuteriga masofadan kirishini tashkil qilishingiz mumkin. Bunday kirish o'qituvchiga nafaqat o'quvchi monitorida joylashtirilgan materialni kuzatish, balki bevosita shaxsiy kompyuter foydalanuvchisi foydalanadigan kompyuter bilan bir xil harakatlarni bajarish imkoniyatini beradi. Bu dastur o'qituvchiga o'quvchilar faoliyatini nazorat qilishda va texnik nosozliklar yuz berganda tezkor yordam ko'rsatishda ko'maklashadi (2-rasm).



2-рasm. O'quv internet resurslari asosida o'rta maktab o'quvchilarining nutqiy faoliyatini rivojlantirish algoritmi

Tadqiqotimizda ingliz tilini o'rganishda raqamli texnologiyalarni joriy etish metodikasini ishlab chiqish o'ziga xos raqamli lingvistik kompetensiya tushunchasiga asoslandik. Bu tushunchaga biz Internetdagi muloqot jarayonida elektron qurilmalar bilan hamkorlikda faoliyat yuritishda maxsus leksikadan erkin foydalanish, shuningdek, ingliz tili ijtimoiy tarmoqlarda qo'llaniladigan "tarmoq tili" yoki inglizcha "netspeak" deb ataladigan ingliz tilining alohida qismini bilish kabi tarkibiy qismlarni kiritdik.

Raqamli kompetensiyani takomillashtirish uchun raqamli texnik kompetensiya asos bo'lib xizmat qiladi. U raqamli kompetensiyaning boshqa tarkibiy qismlari, jumladan multimedia bilan uzviy bog'liqlikda namoyon bo'ladi. Bunday o'zaro aloqada raqamli texnik kompetensiya raqamli kompetentlikni takomillashtirishning poydevori bo'lib qoladi, chunki elektron vositalarni erkin egallash qo'yilgan vazifalarni hal etish uchun ularning barcha imkoniyatlaridan samarali foydalanishga yo'l ochadi.

Ish bosqichi	O'qituvchi faoliyati		O'quvchi faoliyati	
			bilishga oid	kommunikativ
	Amalga oshirilayotgan harakatlar	Amalga oshirilayotgan harakatlar	Amalga oshirilayotgan harakatlar	Amalga oshirilayotgan harakatlar
TAYYORGARLIK BOSQICHI				
1-qadam Viki-loyiha maqsadi bilan tanishish.	o'qituvchi o'quvchilarni viki loyihasining maqsadi bilan tanishtiradi; oxirida o'quvchilar qanday natijaga erishishini ma'lum qiladi; olingan loyihani baholash mezonlari bilan tanishtiradi.	turli viki-sahifalarni ko'rib chiqadi; o'qituvchining viki texnologiyasi imkoniyatlari haqidagi hikoyasini tinglaydilar.	o'qituvchi bilan frontal rejimda hamkorlik qiladi; eshitish orqali qabul qiladi; mulohazalar tuzadilar.	
2-qadam Viki-texnologiya imkoniyatlari bilan tanishish.	o'quvchilardan viking maqsadlari va imkoniyatlari haqida so'raydi; - loyiha bajariladigan viki-hujjat manzilini ko'rsatadi va tarqatadi.	o'qituvchining savollariga javob beradi; - o'quvchilar o'qituvchi bilan birgalikda viking imkoniyatlari bilan tanishadilar.	o'qituvchi bilan va o'zaro munosabatda bo'ladilar.	
3-qadam Ko'rgazmali mashg'ulot.	ko'rgazmali mashg'ulot o'tkazadi; viki-hujjat bilan ishlashda zarur yordam ko'rsatadi.	oddiy topshiriqlarni bajarishga harakat qiladi; olingan kontentni tahrirlash va tuzatish.	muloqotda sherigi uchun tushunarli bo'lgan gaplarni tuzishni o'rganadilar.	
PROTSESSUAL BOSQICH				
4-qadam Mavzu tanlash va materialni tayyorlash.	loyihalar mavzularini taklif qiladi; Internetda mavzular bo'yicha hujjatlarga havolalarni taklif qiladi; yo'naltiruvchi savollar beradi.	mavzular ro'yxati bilan tanishadi; eng qiziqarli mavzularni tanlaydi; o'qituvchining savollariga javob beradi.	o'qituvchi bilan frontal rejimda hamkorlik qiladi; kichik guruhlarda o'zaro munosabatda bo'ladilar.	
5-qadam Materialni tanlash.	tanlangan mavzular bo'yicha bahs-munozara tashkil etadi; tanlangan mavzular bo'yicha guruhlarda ishlashni tashkil etadi, loyiha guruhi a'zolari o'rtasida topshiriqlarni taqsimlaydi.	guruhlarda ishlaydi, mavzularni muhokama qiladi; mavzular bo'yicha havolalarni o'rganadi; eng qiziqarlilari tanlab olinadi.	- eshitib qabul qiladi va tushunishni o'rganadi; - sherigining nuqtayi nazarini hisobga oladi; o'z nuqtayi nazarini bildiradi.	
Ish bosqichi	O'qituvchi faoliyati		O'quvchi faoliyati	
			bilishga oid	kommunikativ
	Amalga oshirilayotgan harakatlar	Amalga oshirilayotgan harakatlar	Amalga oshirilayotgan harakatlar	Amalga oshirilayotgan harakatlar

6-qadam Muhokama	guruhlarda muhokama qilishni tashkil etadi; qo'yilgan vazifalarni bajarishda o'quvchilarga zarur yordam ko'rsatadi.	reja tuzadilar; jadvallarni to'ldiradi; keyingi muhokama uchun bajarilgan topshiriq hajmini shakllantiradi; ular materialni qanday ketma-ketlikda tahrir qilishlari, to'ldirishlarini aniqlaydilar.	eshitish orqali qabul qiladi va tushunishni o'rganadi; sheringining nuqtayi nazarini hisobga oladi; o'z nuqtayi nazarini bildiradi.
7-qadam Hujjatning xomaki variantini yozish.	o'quvchilar ishining monitoringini olib boradi; qiyinchiliklar yuzaga kelganda ularga yordam beradi; o'quvchilarning mustaqil faoliyati monitoringini olib boradi.	har bir o'quvchi vik-sahifada loyihaning o'z qismini yozadi; o'z materiallarini navbat bilan joylashtiradi; bir-birining ma'lumotlarini to'ldiradi va tuzatadi.	bir-biri bilan o'zaro hamkorlik qiladi; o'z nuqtayi nazarini bildiradi; kerakli ma'lumotlarni tanlaydi; xabarlarni e'lon qiladi.
8-qadam: Hujjatning dastlabki loyihasini kichik guruhlarda muhokama	o'quvchilar o'rtasida bahs-munozara tashkil etadi; bajarilgan topshiriqning to'g'riligiga baho beradi.	olingan hujjatni mini-guruhlarda muhokama qiladilar	- o'z nuqtayi nazarini bildiradi va asoslaydi.
9-qadam Tuzatish kiritish	- o'quvchilar faoliyatini yo'naltiradi/to'g'rilaydi.	- zarur tuzatishlar kiritadilar.	- o'zaro va o'qituvchi bilan hamkorlik qiladilar
10-qadam Nashr va taqdimot	zarur yordam ko'rsatadi, zarur hollarda onlayn yordam ko'rsatadi, o'quvchilardan tomonidan materiallarning joylashtirilishini nazorat qiladi; olingan viki-hujjatlarning sinfda taqdimotini tashkil etadi; taqdimotni nazorat qiladi; zarur bo'lganda ish natijalariga tuzatishlar kiritadi.	loyihaning o'z qismini taqdim etish/chiqarish - har bir guruhdan ma'ruzachining chiqishi.	yakka tartibda ishlash; o'qituvchi va o'quvchining o'zaro ta'siri.
BAHOLASH BOSQICHI			
11-qadam Faoliyatni baholash	- o'qituvchi o'quvchilar ishini oldindan ma'lum bo'lgan mezonlarga ko'ra baholaydi.	- muhokama qilinayotgan muammoning mohiyatini qay darajada ochib berayotganliklarini baholaydilar.	- o'qituvchi va o'quvchining o'zaro ta'siri.]

3-rasm. Viki-texnologiya asosida umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarining chet tili bo'yicha bilimlarini shakllantirishni rivojlantirish algoritmi

Internet texnologiyalari asosida umumiy oʻrta taʼlim maktablari ingliz tili oʻqituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish uchun internet resurslaridan foydalanish algoritmini ishlab chiqish Web 2.0 texnologiyalari bilan ishlashda oʻqituvchi va oʻquvchi harakatlarining texnologiyasi va algoritmlarini yaratish shaklida yanada takomillashtirildi.

Algoritm blog, wiki kabi texnologiyalarga asoslangan boʻlib, ular oʻqituvchiga chet tilida nutq faoliyatining barcha koʻnikmalarini: oʻqish, gapirish va tinglash koʻnikmalarini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar taqdim etadi. Ushbu algoritmning xususiyatlariga eʼtibor qaratib, shuningdek, internet manbalari bilan ishlash xususiyatlarini inobatga olgan holda, biz 3 bosqich va 11 qadamdan iborat boʻlgan internet manbalari bilan ishlash algoritmini (Treasure Hunt, Subject Sampler va WebQuest) taklif etamiz.

Tadqiqotimizning muhim bosqichi oʻqituvchilarning chet tili bilimlarini multimediali elektron taʼlim resurslari yordamida shakllantirishning metodik modelini ishlab chiqish boʻldi (4 - rasm).

Oʻqituvchilarning chet tili boʻyicha bilimlarini multimediali elektron taʼlim resurslari vositasida shakllantirishning metodik tizimi deganda, oʻqituvchi va oʻquvchilarning oʻzaro hamda taʼlim jarayonida elektron taʼlim resurslarining multimedia dasturlari bilan oʻziga xos munosabatiga asoslangan yaxlit taʼlim tushuniladi. Metodik tizimning tarkibiy qismlari sifatida maqsadli, nazariy-metodologik, motivasion, mazmunli, jarayonli va natijaviy jihatlar koʻrib chiqiladi.

Raqamli texnologiyalardan foydalanishning ushbu oʻziga xos shart-sharoitlaridan kelib chiqib, biz ingliz tili darslarida raqamli texnologiyalardan foydalangan holda oʻqitishning pedagogik modelini ishlab chiqdik.

Modelning asosiy tarkibiy qismlari

Raqamli vositalar va platformalar:

gapirish va tinglash koʻnikmalarini rivojlantirish uchun lingafon laboratoriyalari, onlayn platformalar va mobil ilovalar;

leksika va grammatikani mustahkamlash uchun interaktiv oʻyinlar va veb-kevestlar;

Innovatsion oʻqitish usullari:

loyiha va tadqiqot usullari: Oʻquvchilar raqamli vositalardan foydalanib, oʻz loyihalarini (masalan, taqdimotlar, videolar) yaratadilar va ingliz tilidagi mavzularni oʻrganadilar;


